

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Seytaliev Maksadbek Mamaduraem o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning zamonaviy tendensiyalari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, investitsiya faolligining oshishi, sanoat va xizmatlar sohasining rivojlanishi, tadbirkorlik muhitining takomillashuvi hamda eksport salohiyatining kengayishi iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, inson kapitali va yashil iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlar mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston iqtisodiyoti, zamonaviy tendensiyalar, iqtisodiy istiqbollar, makroiqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, investitsiyalar, investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalar.

Annotation: This article analyzes the current trends in economic growth in Uzbekistan and future development directions. The structural reforms being implemented in the country's economy, the increase in investment activity, the development of industry and services, the improvement of the business environment, and the expansion of export potential are highlighted as important factors in economic growth. The impact of the digital economy, innovation, human capital, and the green economy on economic development was also assessed. According to the study, improving production efficiency, expanding the production of high-value-added products, supporting the private sector, and increasing investment attractiveness are important for ensuring sustainable economic growth. These areas will serve to increase the country's competitiveness.

Keywords: Economic growth, economic development, economy of Uzbekistan, modern trends, economic prospects, macroeconomic stability, gross domestic product, investments, investment policy, foreign investments.

Аннотация: В статье анализируются современные тенденции экономического роста в Узбекистане и направления перспективного развития. Структурные реформы в экономике страны, рост инвестиционной активности, развитие промышленности и сферы услуг, улучшение предпринимательской среды и расширение экспортного потенциала были освещены как важные факторы экономического роста. Также оценивалось влияние цифровой экономики, инноваций, человеческого капитала и зеленой экономики на экономическое развитие. Согласно результатам исследования, для обеспечения устойчивого экономического роста важно повысить эффективность производства, расширить выпуск продукции с высокой добавленной стоимостью, поддержать частный сектор и повысить инвестиционную привлекательность. Эти направления будут способствовать повышению конкурентоспособности страны.

Ключевые слова: Экономический рост, экономическое развитие, экономика Узбекистана, современные тенденции, экономические перспективы, макроэкономическая стабильность, валовой внутренний продукт, инвестиции, инвестиционная политика, иностранные инвестиции.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub tarkibiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, xalqaro savdo va investitsiya oqimlarining o'zgarishi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasi har qanday mamlakat uchun makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda

iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini ta'minlash bilan bir qatorda uning sifat jihatlarini takomillashtirish, ya'ni iqtisodiy o'sish natijalarining aholi turmush darajasiga ta'sirini kuchaytirish, daromadlar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham so'nggi yillarda keng ko'lamli tarkibiy va institutsional islohotlar ta'sirida yangi rivojlanish bosqichiga kirmoqda. Mamlakatda bozor mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, sanoatni modernizatsiya qilish va xizmatlar sektorini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirib, iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Shu jihatdan O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning mavjud holatini baholash, uning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri yalpi ichki mahsulot hajmi va uning o'sish sur'ati hisoblanadi. Biroq zamonaviy sharoitda iqtisodiy o'sishni faqat yalpi ichki mahsulotning miqdoriy o'zgarishi bilan baholash yetarli emas. Iqtisodiy o'sishning sifati, tarkibi, barqarorligi va inklyuzivligi ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, mehnat unumdorligining yuksalishi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarning rivojlanishi, innovatsion faoliyatning kengayishi va inson kapitaliga investitsiyalarning ortishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omillarini tashkil etadi. Shu sababli O'zbekistonda iqtisodiy o'sish jarayonlarini o'rganishda nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi va uning ichki imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri investitsiya faoliyatining rivojlanishi hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Xorijiy investitsiyalar esa kapital bilan bir qatorda ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga chiqish

imkoniyatlarini olib kirishi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri ularning hajmiga emas, balki yo'naltirilayotgan sohalarning samaradorligi, investitsiya loyihalarining iqtisodiy qaytimi va yaratilayotgan qo'shilgan qiymat darajasiga ham bog'liq.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yana bir muhim tendensiyasi xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, transport va logistika, turizm, savdo, ta'lim hamda boshqa xizmat turlarining rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasining kengayishi yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish bilan birga, iqtisodiyotda innovatsion va bilimlarga asoslangan faoliyat turlarining ulushini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, xizmatlar sektorining rivojlanish sur'atlari va uning yalpi ichki mahsulot shakllanishidagi hissasini o'rganish iqtisodiy o'sishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yangi omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, savdo, moliya, davlat boshqaruvi va xizmatlar sohasiga joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarning tezkorligi va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, raqamli to'lovlarning kengayishi, biznes jarayonlarining avtomatlashtirilishi va ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarining ortishi tadbirkorlik faoliyatining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Kelgusida sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirishda muhim rol o'ynashi kutiladi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sishning istiqbollarini belgilashda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Energiya resurslaridan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda. O'zbekiston uchun ushbu yo'nalish ayniqsa muhim bo'lib, energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish ishlab

chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yangi investitsiya yo‘nalishlarini shakllantirish hamda iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o‘shish masalasi iqtisodiy nazariyaning eng markaziy va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy o‘shishning manbalari, omillari, sifat ko‘rsatkichlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini chuqur yoritib beradi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda jahon va milliy iqtisodiy tafakkur namoyandalarining ilmiy qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o‘shishni tarixiy-statistik nuqtai nazardan o‘rganishda A.Maddisonning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning jahon iqtisodiyoti bo‘yicha uzoq muddatli statistik ma’lumotlarga asoslangan ishlari iqtisodiy o‘shish sur’atlari va farqlarini mamlakatlar kesimida solishtirish imkonini beradi. Maddison iqtisodiy o‘shishni faqat ishlab chiqarish hajmlarining ortishi sifatida emas, balki institutsional rivojlanish, texnologik taraqqiyot va inson kapitali bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda, ayniqsa, islohotlar davrida yuzaga kelgan strukturaviy o‘zgarishlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiy o‘shish nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan S.Kuznets iqtisodiy o‘shishni uning sur’atlari, tarkibi va tarqalish mexanizmlari orqali tahlil qiladi. Uning ilmiy qarashlarida iqtisodiy o‘shish uzoq muddatli jarayon sifatida qaralib, bunda sanoatlashtirish, urbanizatsiya, daromadlar tarkibidagi o‘zgarishlar va ijtimoiy tengsizlik masalalari muhim o‘rin egallaydi [2]. Kuznetsning yondashuvi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish jarayonining bosqichma-bosqich xususiyatlarini, ayniqsa agrar iqtisodiyotdan sanoat va xizmatlar sektoriga o‘tish jarayonlarini tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o‘shishning klassik siyosiy iqtisod doirasidagi talqini K.Marks asarlarida chuqur yoritilgan. Uning kapitalistik ishlab chiqarish usuli, qo‘shimcha qiymat va jamg‘arish jarayonlari haqidagi qarashlari iqtisodiy o‘shishning ichki mexanizmlarini

tushuntirishga qaratilgan. Marks iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va kapital jamg'arilishi bilan bog'lab, bu jarayonda mehnat unumdorligi va texnologik taraqqiyotning rolini alohida ta'kidlaydi [3]. Ushbu nazariy yondashuv O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar, investitsiya jarayonlari va ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy o'sish muammolarini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri I.M.Tenyakov hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida iqtisodiy o'sish manbalari va omillari bilan bir qatorda, uning sifati masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tenyakov iqtisodiy o'sishning faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy farovonlik, bandlik, innovatsion faollik va barqarorlik bilan baholanishi lozimligini ta'kidlaydi [4]. Bu yondashuv O'zbekiston iqtisodiy o'sishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelini tahlil qilishda dolzarb hisoblanadi.

Milliy iqtisodiy tafakkur doirasida iqtisodiy o'sish masalalari Sh.Sh.Shodmonov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyot nazariyasi darsligida keng yoritilgan. Ushbu asarda iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari, omillari va modellari bozor iqtisodiyoti sharoitida tahlil qilinadi. Muallif iqtisodiy o'sishda resurslardan samarali foydalanish, institutsional muhit va davlat iqtisodiy siyosatining ahamiyatini ta'kidlaydi [5]. Ushbu qarashlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning o'sishga ta'sirini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

T.T.Jo'rayev va M.A.Hamdammov tomonidan yaratilgan iqtisodiyot nazariyasi darsligida iqtisodiy o'sish zamonaviy bozor munosabatlari nuqtai nazaridan yoritiladi. Mualliflar iqtisodiy o'sishni makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va raqobat muhitining rivoji bilan bog'laydi [6]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi va ichki omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixiga bag'ishlangan Sh.X.Tashmatovning asarida iqtisodiy o'sish haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi yoritiladi. Klassik, neoklassik va

zamonaviy iqtisodiy maktablar doirasida iqtisodiy o'sishga berilgan yondashuvlar tahlil qilinadi [7]. Ushbu asar iqtisodiy o'sish nazariyalarini solishtirish va O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish modelining nazariy asoslarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

M.A.Mamatovning iqtisodiy o'sishga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasida iqtisodiy o'sish tushunchasi, omillari va ko'rsatkichlari tizimli ravishda yoritilgan. Muallif iqtisodiy o'sishda investitsiyalar, texnologik yangilanish va inson kapitalining rolini alohida ta'kidlaydi [8]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, modernizatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologik asosini iqtisodiy o'sish nazariyalari, makroiqtisodiy rivojlanish tamoyillari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida tarkibiy transformatsiya jarayonlarini ifodalovchi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy o'sish dinamikasini baholash uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holatini baholashda yalpi ichki mahsulot hajmi va o'sish sur'atlari, investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, tashqi savdo hamda eksport ko'rsatkichlarining o'zgarishlari asosiy tahlil obyekti sifatida olindi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi investitsion faollik, tadbirkorlik, innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish va inson kapitali kabi omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqotda dinamik tahlil orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarishi baholandi, qiyosiy tahlil yordamida turli davrlardagi natijalar solishtirildi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning asosiy tendensiyalari aniqlanib, istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning rivojlanish dinamikasi 2025-yilga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2025-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekiston YaIM 6,7–6,8 foizga o‘tdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 6,3 foiz, bozor xizmatlari 13,5 foiz, qishloq xo‘jaligi 4 foiz va qurilish ishlari 9,7 foizga o‘sgan. Inflyatsiya yil boshiga nisbatan 4,2 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti daromadlari 144,2 trln so‘mga yetib, 27,8 foizga oshdi, xarajatlar esa 13,1 foizga ko‘paydi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 1,6 mlrd dollar, asosiy kapitalga investitsiyalar esa 265,2 trln so‘mga yetdi, 71 foizi xorijiy investitsiyalardir. Ushbu o‘shish ichki ishlab chiqarish, yangi texnologiyalar, davlat qo‘llab-quvvatlashi va xorijiy investitsiyalar oqimi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanish yo‘lida ekanligini ko‘rsatadi. Quyidagi rasmda 2021-2025 yillarda O‘zbekistonning yarim yillik iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari aks ettirilgan bo‘lib, ular mamlakat rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatib beradi (1-rasm):



1-rasm. O‘zbekistonning yarim yillik iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari, 2021-2025 yillar, foizda [9]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi besh yil davomida sezilarli darajada o‘shib kelmoqda. So‘nggi besh yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘shish ko‘rsatmoqda. 2021-yilda yarim yillik o‘shish 6,2 foiz bo‘lgan, keyingi yilda pandemiya va global muammolar tufayli 5,4 foizga tushgan. 2023-yildan iqtisodiy o‘shish tiklanib, 5,6 foizga yetdi, 2024-yilda esa 6,4 foizga ko‘tarildi. Eng yuqori natija 2025-yilda

– 6,7 foizga erishildi, bu barqaror rivojlanish, xorijiy investitsiyalar ko‘payishi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hamda ichki talabning o‘shishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi YAIM mamlakat iqtisodiy qudrati, ishlab chiqarish salohiyati va aholining farovonligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichdir. YAIM hajmi va o‘shish sur‘atlari iqtisodiy siyosat samaradorligi, tarmoqlar faoliyati va investitsion muhit barqarorligini aks ettiradi. 2020–2024 yillarda YAIM bosqichma-bosqich ortib, 2020-yilda 668 039,0 mlrd so‘mdan 2024-yil yakunida 1 454 573,9 mlrd so‘mga yetdi, ya‘ni deyarli ikki baravar o‘ydi. O‘shish sur‘atlari esa 2021-yilda 108 foiz, 2022-yilda 106 foiz, 2023-yilda 106,3 foiz va 2024-yil yakunida 106,5 foizni tashkil etdi, bu esa pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari va islohotlarning amaliy natija berayotganini ko‘rsatadi. Quyidagi rasmda 2020–2024 yillar mobaynida O‘zbekistonning YAIM hajmi va uning yillik o‘shish sur‘atlari batafsil ko‘rib chiqamiz (2-rasm):



2-rasm. 2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yalpi ichki mahsulot (YaIM) [10]

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston YAIM hajmi 2020–2024 yillarda izchil o‘shib, 2020-yilda 668 039,0 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1 454 573,9 mlrd so‘mga yetdi. 2021-yilda 820 536,6 mlrd so‘mga oshib, sur‘at 108 foizni tashkil qilgan, 2022-yilda 995 573,1 mlrd so‘m va 106 foiz sur‘at qayd etilgan. 2023-yilda YAIM 1 204 485,4 mlrd so‘mga yetib, 106,3 foizga o‘ydi, 2024-yilda esa eng yuqori natijaga, ya‘ni 1 454 573,9 mlrd so‘m va 106,5 foizga erishildi. Bu besh yillik o‘shish iqtisodiy barqarorlik, investitsiya oqimi va ishlab chiqarish quvvatlarining ortganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston YAIM tarkibi uch asosiy yo‘nalish: tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va mahsulotlarga sof soliqlardan iborat. 2020–2024-yillarda iqtisodiyot asta-sekin kengayib, xizmatlar sohasi ulushi oshdi, bu raqamli texnologiyalar, turizm va moliyaviy xizmatlar rivoji bilan bog‘liq. Tovarlarni ishlab chiqarish hajmi ham ortdi, biroq YAIM tarkibida xizmatlar ustuvor bo‘lib qolmoqda. Sof soliqlar hajmi ham oshib, bu byudjet daromadlari, soliq islohotlari va iqtisodiy faoliyatdan tushumlarning ortishiga tayanadi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyida keltirilgan rasm 2020–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston YAIM tarkibini ko‘rsatib beradi. Unda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va mahsulotlarga sof soliqlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar jamlangan bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining qaysi yo‘nalishlarida yuqori sur‘atda o‘shish kuzatilganini ochib beradi (3-rasm):



3-rasm. 2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIM (joriy narxlar, trln so‘m) [10]

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2020-2024-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti sezilarli o‘shish ko‘rsatdi. Tovarlarni ishlab chiqarish hajmi 364,4 trln so‘mdan 729,3 trln so‘mgacha oshib, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining kengayganini ko‘rsatdi. Xizmatlar sohasi esa 259,2 trln so‘mdan 657,3 trln so‘mgacha oshib, transport-logistika, moliya, telekommunikatsiya va turizm sohalarida tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Mahsulotlarga sof soliqlar 44,4 trln so‘mdan 68 trln so‘mgacha ko‘tarilib, byudjet daromadlarining barqarorligini ta‘minladi. Shu bilan O‘zbekiston iqtisodiyoti

izchil o'sib, xizmatlar sohasi tarkibda ustuvorlik kasb etdi, ishlab chiqarish sektori esa barqaror o'sishda davom etdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollarini o'rganish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi investitsiyalar, sanoat va xizmatlar sohasi, tadbirkorlik, eksport salohiyati, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning o'rnini tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va resurslardan samarali foydalanish zarur.

Mavzuga doir o'rganilgan yondashuvlar asosida quyidagi takliflarni ilgari surdik:

1. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish lozim;
2. Investitsiyalar samaradorligini oshirish. Investitsiyalarni yuqori texnologiyali va istiqbolli tarmoqlarga yo'naltirish hamda investitsiya loyihalarini samaradorlik mezonlari asosida baholash zarur;
3. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. Kichik va o'rta biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va raqobat muhitini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq;
4. Innovatsiya va raqamlashtirishni jadallashtirish. Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash va raqamli xizmatlarni kengaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi;
5. Inson kapitalini rivojlantirish. Ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va mehnat unumdorligini oshirishga e'tibor qaratish lozim;

Umumiy qilib aytganda, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning istiqbollari investitsiya, innovatsiya, xususiy tadbirkorlik, raqamli transformatsiya, inson kapitali va eksport

salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Shu bois, iqtisodiy o‘shishning yangi manbalarini shakllantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish mamlakatning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maddison A. The World Economy: Historical Statistics. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2003. 274 pages.
2. Kuznets S. Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread. Yale University Press, 1966. 524 pages.
3. Маркс К. Капитал. Критика политической экономии. Том I. – Москва: Политиздат, 1978. – 902 с.
4. Теняков И.М. Современный экономический рост: источники, факторы, качество. Монография. - М.: МГУ, 2015.
5. Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.
6. T.T.Jo‘rayev, M.A.Hamdammov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 504 bet.
7. Sh.X.Tashmatov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 - 504 b.
8. M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘shish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 - 384 b.
9. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
10. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti